



УЎК:398.541

Gulnora QAYUMOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: qolimq@mail.ru

Filologiya fanlari doktori U.Sattorov taqrizi asosida

MIFLAR MORFOLOGIYASIGA DOIR

Аннотация

Mazkur maqolada miflar folklor asari sifatida muayn syujetga ega ekanligi, syujet elementlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, mif syujetining morfologik xususiyatlari borasida aniq tahlillar asosida ilmiy mushohadalar yuritiladi. Mif syujetining tuzilishi uning poetik qonuniyatlar asosida yaratilganligi va og'zaki epik mantning xalq badiiy ijodiga daxldorligini ko'rsatuvchi poetik belgilar o'chib berilgan.

Kalit so'zlar: Mif, syujet, personaj, ramz, obraz, hikoya.

МОРФОЛОГИЯ МИФОВ

Аннотация

В статье рассматриваются мифы как фольклорные произведения, имеющие определённый сюжет, анализируются элементы сюжета. Также проводятся научные наблюдения на основе точного анализа морфологических особенностей сюжета мифа. Структура сюжета мифа раскрывается на основе поэтических законов и поэтических символов, что свидетельствует о значимости устного эпоса для народного художественного творчества.

Ключевые слова: Миф, сюжет, персонаж, символ, образ, рассказ.

THE MORPHOLOGY OF MYTHS

Annotation

This article examines myths as folklore works with a specific plot and analyzes the elements of the plot. It also provides scientific observations based on a precise analysis of the morphological features of the myth's plot. The structure of the myth's plot is revealed through poetic laws and poetic symbols, demonstrating the significance of oral epic poetry for folk art.

Key words: Myth, plot, character, symbol, image, story.

Kirish. Miflar qadimgi odamning ijtimoiy hayoti, olam va odam haqidagi qarashlari mahsuli bo'lganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Miflar ilk og'zaki epik nasr namunasi sifatida adabiyotning maydonga kelishida muhim omil bo'lganligi dunyo olimlari tomonidan tan olingan. Jumladan, Jozef Kempbell: "Sen qahramonga aylanasan" asarida turli madaniyatlardagi miflarning universal motivlarini o'rganadi va ularni inson tajribasi arxetiplari bilan bog'laydi[3]. Miriam Robinson F.Skott Fisdjerald, Ernest Xeminguey i Uilyam Folkner kabi yozuvchilarning asarlari misolida miflarning zamonaviy amerika adabiyotiga ta'sirini aniqlashtiradi[5].

Adabiyotlar tahlili. Turkiy xalqlar folklorshunosligida miflarning xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida tasniflanishi masalasida turlicha fikrlar bildirilgan. Masalan, K.Imomov mif va og'zaki hikoya janrlarini epik turning naqliy asarlari sirasiga kiritisa, T.Mirzayev va O.Safarovlar mifni "folklorning eng qadimiy janrlari"dan biri, deb hisoblaydilar[6]. A.Baymiradov ham turkman folklorida mif janri mavjudligini qayd qilgan[1]. Taniqli qozoq folklorshunosi S.Qasqabasov "qoldiq holda saqlanib qolgan mif janri"ni qozoq xalq og'zaki nasrining etak bo'lmagan janrlari qatoriga kirishini ta'kidlagan[7]. O'zbek mifologiyasining yirik tadqiqotchisi M.Jo'rayev mif, afsona, rivoyat va og'zaki hikoya janrlarini o'zbek folklorining ma'rifiy nasrga mansub janrlari tarzida tasniflagan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Mif – jamiyat tomonidan qabul qilingan, muqaddas hisoblangan va muayyan qadriyatlarini targ'ib qiluvchi an'anaviy og'zaki hikoyadir. Mif syujeti esa ushbu hikoyaning asosiy voqealari ketma-ketligi,

personajlarning o'zaro munosabati va konfliktlarning hal qilinishini o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Miflar og'zaki kichik hikoya bo'lganligi, ularda asosan, qaysidir tabiiy hodisaning ibtidosi yoki intihosi izohlanishi maqsad qilganligi uchun ham ular ixcham syujetga ega bo'ladi. "O'gay onadan qochgan qiz" nomli mifda o'ynay yuzidagi dog' qay tariqa paydo bo'lganligi sababini izohlash maqsadida o'gay ona va chiroyli o'gay qiz sarguzashti hikoya qilinadi:

"Eshitishimizcha, Oyqizning o'gay onasi bo'lgan emish. U Oyqizni o'gayligi uchun ham, husnda yer yuzida tengi yo'q go'zal bo'lganligi uchun ham juda ham yomon ko'rar, kun bermas, yo'qotish uchun har xil vajlar o'ylab topib, uni urar, har doim qiynar ekan. Kunlardan bir kuni nima bo'libdi-yu o'gay ona bilan Oyqiz qattiq janjallashib, aytishib qolishibdi. O'ynay go'zalligini ko'rolmaydigan o'gay ona uning yuziga dasmolni otib yuborgan ekan, bechora Oyqizning yuzi dog' bo'lib qolibdi. Bu xo'rlikka chidolmagan Oyqiz uyidan qochib ketib, tog'ning eng baland cho'qqisiga chiqib olgach, "yana pastga tushsam, o'gay ona qo'liga asira bo'laman, kel, yerda azob ko'rib yurganimdan ko'ra, osmonda ozod qush bo'lib yashaganim yaxshiroq!" deb o'ylab bir sakrab osmonga chiqib ketibdi va o'zi o'ylaganday qushga emas, balki samo yoritqichi – Oyga aylanib qolibdi. Ana shundan beri u osmonda istiqomad qilar, ammo o'gay onasidan qo'rqib, kunduzi emas faqat kechasi sayrga chiqar, haliyam undan qochib yurar emish"[8].

Mazkur og'zaki hikoya mif bo'lib, voqealar garchi tabiat hodisasining kelib chiqish sababini izohlasa-da, inson hayotiga xos tasvirdan boshlangan. Osmondagi oy qadimda

chiroyli qiz bola bo'lganligi, biroq uning onasi o'gay ekanligi syujetning boshlang'ich nuqtasi. O'gay ona va o'gay qiz munosabatlari osmon jismining paydo bo'lishini izohlashga xizmat qilgan. Inson oilasidagi o'gaylar o'rtasida sodir bo'lgan kelishmovchilik mif syujeti kulminatsiyasi – voqealar rivojidir. Ayni shu voqealar rivoji syujet evolyutsiyasining davomiyligini ta'minlaydi. Ayni shu nuqtadan so'ng voqelikda evrilish hodisasi yuz beradi. Evrilish – o'gay qizni baland tog' cho'qqisiga chiqishi va bir sakrab osmonga chiqib ketishi natijasida oyga aylanib qolishi tasvirida o'z ifodasini topgan. Mif syujetidagi evrilish mifning asosiy g'oyasini ochib berilishini ta'minlagan.

Mif syujetining strukturaviy elementlariga e'tibor qaratsak ular quyidagilardan iborat:

1. Ekspozitsiya mifning boshlanishi bo'lib, unda voqealar sodir bo'ladigan joy, zamon va asosiy personajlar tanishtiriladi: Eshitishimizcha, Oyqizning o'gay onasi bo'lgan emish. U Oyqizni o'gayligi uchun ham, husnda yer yuzida tengi yo'q go'zal bo'lganligi uchun ham juda ham yomon ko'rar, kun bermas, yo'qotish uchun har xil vajlar o'ylab topib, uni urar, har doim qiynar ekan. Bu mifda voqealar uzoq o'tkan zamonda, yerda odamlar yashaydigan makonda sodir bo'lgan.

2. To'qnashuv – Personajlarning hayotini o'zgartirib yuboradigan voqea yoki muammo yuzaga keladi. Bu voqea personajlarni harakatga undaydi va ularning maqsadlarini belgilab beradi: Kunlardan bir kuni nima bo'libdi-yu o'gay ona bilan Oyqiz qattiq janjallashib, aytishib qolishibdi. Oyniing go'zalligini ko'rolmaydigan o'gay ona uning yuziga dasmolni otib yuborgan ekan, bechora Oyqizning yuzi dog' bo'lib qolibdi.

3. Voqealar rivoji – Personajlarning maqsadlariga erishish yo'lidagi harakatlari va sarguzashtlari tasvirlanadi. Ular turli xil qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishadi: Bu xo'rlikka chidolmagan Oyqiz uyidan qochib ketib, tog'ning eng baland cho'qqisiga chiqib olgach, "yana pastga tushsam, o'gay ona qo'liga asira bo'laman, kel, yerda azob ko'rib yurganimdan ko'ra, osmonda ozod qush bo'lib yashaganim yaxshiroq!"– deb o'ylab bir sakrab osmonga chiqib ketibdi.

4. Kulminatsiya – mifdagi eng keskin va muhim nuqta. Personajlarning asosiy konflikti hal qilinadi va voqealarda qahramonning taqdiri aniqlanadi: o'zi o'ylaganday qushga emas, balki samo yoritqichi – Oyga aylanib qolibdi.

5. Yechim – kulminatsiyadan keyingi voqealar rivoji va yakuni. Voqealar hal etiladi, tartib o'rnatiladi va personajlarning hayoti o'zgaradi: Ana shundan beri u osmonda istiqomad qilar, ammo o'gay onasidan qo'rqib, kunduzi emas faqat kechasi sayrga chiqar, haliyam undan qochib yurar emish.

6. Motivlar – mifda o'gay onaning g'alamislik motivi qahramonning qochib ketish motivi hamda evrilish motivlari yetakchilik qilgan.

7. Personajlar – o'gay ona, Oyqiz. Mazkur mifda evrilish sodir etgan iloh ko'zga ko'rinmaydi. U o'z asl ma'nonosida yashirin harakatlanadi yoki ilohning xatti-harakatlarini bandasi ko'ra olmaydi, uning harakatlari sirli ravishda kechadi. Oy qizning oyga aylanib qolishi ham bevosita ilohning karomati va o'ta sirli ravishda sodir bo'lgan.

"Oy va Yulduzlar" nomli mifda syujetda tasvirlangan voqealar osmonda oyniing va yulduzlarning paydo bo'lishi, oyniing katta va kichrayib borishi sirlarini izohlashga qaratilgan: "Ba'zan tunda osmonga qarasangiz ora-sira yulduz uchishini ko'rishingiz mumkin. Osmonda yashovchi farishtalar yerga yulduzlarni tashlaganda shunday yorug' iz qolarmish. Ular Ollo taolloning taxti poyi bo'lmish arshi a'loga yaqinlashmoqchi bo'lgan shaytonni farishtalar haydayotganlarida ularni yulduz bilan urar ekanlar. Osmonda yulduz kamayib qolmasin uchun farishtalar oyni ushatib yulduzga aylantirisharkan.

Oy tamom bo'lgach, xudoning amri bilan yangi mohitobon paydo bo'lar, ammo dastlab yangi oy bamisoli o'roqday ingichka bo'larmish. U asta-sekin to'lishib, o'n besh kundan keyin to'lin oyga aylangach, farishtalar oyni bir chekkasidan oz-ozdan ushatib, maydalab, osmonga sochib yuborishar, oy parchalari esa yulduzga aylanib jimirlab turaverarmish. Farishtalar oyni ushatib, tamom qilishgandan keyin xudo yana qaytadan yangi oyni yaratar, shu bois osmondagi yulduzlar sirayam kamaymas, qanchadan-qancha yulduzlar uchgani bilan ularning o'rni muntazam ravishda to'lib turaverarkan".

Ushbu mif matnida osmon hodisalari – yulduzlarning uchishi, oyniing shakllanishi va yulduzlarning sonining kamaymasligi – farishtalar va xudoning ishtiroki bilan tushuntiriladi. Endi syujetning strukturaviy elementlarini tahlil qilamiz:

1. Ekspozitsiya (Kirish):

Voqea sodir etiladigan zamon va makon: Tungi osmon.

Personajlar: Farishtalar, shayton, Olloh taolo.

Holat: Tunda yulduzlarning uchishi kuzatiladi. Bu voqeaning siri ochilishi kutilmoqda.

2. Adabiy konflikt:

Shaytonning arshi a'loga yaqinlashishga urinishi farishtalarning qarshiligiga sabab bo'ladi.

Yulduzlarning uchib ketishi osmonning yorug'ligi kamayishiga olib kelishi mumkin.

3. Voqealar rivoji:

Farishtalar shaytonni yulduzlar bilan urib haydaydi.

Osmonda yulduzlar kamayib qolmasligi uchun farishtalar oyni ushatib yulduzga aylantiradi.

Oy tamom bo'lgach, xudoning amri bilan yangi oy paydo bo'ladi.

Yangi oy o'roqday ingichka bo'lib, asta-sekin to'lishib, to'lin oyga aylanadi.

4. Kulminatsiya:

Farishtalar to'lin oyni bir chekkasidan oz-ozdan ushatib, maydalab, osmonga sochib yuboradi.

Oy parchalari yulduzga aylanib jimirlab turadi.

5. Yechim (Yechim):

Farishtalar oyni ushatib, tamom qilishgandan keyin xudo yana qaytadan yangi oyni yaratadi.

Shu bois osmondagi yulduzlar sirayam kamaymas, qanchadan-qancha yulduzlar uchgani bilan ularning o'rni muntazam ravishda to'lib turaveradi.

6. Motivlar:

Tartibning kaos ustidan g'alabasi: Farishtalarning shaytonni haydashi tartibning buzilishiga yo'l qo'ymaslikni anglatadi.

Muvozanatni saqlash: Osmonda yulduzlar sonining doimiyligi muvozanatni saqlash zaruratini ko'rsatadi.

Takrorlanish: Oyniing paydo bo'lishi, to'lishi, ushalishi va yangi oyniing yaratilishi tabiatning doimiy aylanishini aks ettiradi.

Xudoning qudrati: Xudoning yangi oyni yaratish qobiliyati uning cheksiz qudratini namoyon qiladi.

7. Personajlar:

Farishtalar: Ollohning xizmatkorlari, tartibni saqlovchilar, yulduzlarni himoya qiluvchilar.

Shayton: Yovuzlik, tartibbuzarlik va gunoh ramzi.

Olloh taolo: Oliy qudrat, yaratuvchi va tartib o'rnatuvchi.

8. Ramzlar:

Oy: Vaqtning o'tishi, o'zgarishlar, siklichnost (davriylik).

Yulduzlar: Yorug'lik, umid, osmonning bezagi.

Arsh: Xudoning taxti, muqaddas joy.

Yulduzning uchishi: Vaqtinchalik hodisa, sirliklik.

Ushbu mif syujeti murakkab bo'lmagan tuzilishga ega bo'lib, unda osmon hodisalari diniy e'tiqodlar asosida tushuntiriladi. Mifning asosiy g'oyasi - Ollohning qudrati, farishtalarning sadoqati va osmonning muvozanatini saqlash. Mif oddiy tilda bayon etilgan bo'lib, uning maqsadi - osmon hodisalarini tushuntirish va diniy e'tiqodni mustahkamlashdan iborat.

Xulosa va takliflar. Xullas, miflar ham folklarning boshqa epik janrlari singari struktural jihatdan ekspozitsiya, adabiy konflikt, voqealar rivoji, tugun va echimdan iborat bo'ladi. Miflarning syujet elementlari ham motiv, personaj, obrazlardan tashkil topib, o'ziga xos poetik qonuniyatlarga asoslanishi uning qadimiy og'zaki ijod namunasi ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасының тарыхы эволюциясы. – Ашхабад: Ылым, 1982. – Б.21.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiq a yashriyoti, 2010. – B.42.
3. Joseph Campbell. The Hero with a Thousand Faces. – New York, Bollingen Foundation Inc. 1949. – 228 p.
4. Жўраев М. Ўзбек халқ насри жанрларини тасниф қилиш мезонлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – 1996, 5-сон. – Б. 32-33.
5. Miriam Robinson. The Case of the Missing Will // – New York, Dodd, Mead and Company in the U.S. in 1923.
6. Мирзаев Т. Фольклор ва унинг асосий хусусиятлари//XX аср ўзбек фольклоршунослиги антологияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2017.– Б. 250-264.
7. Қасқабасов С. Таңдамалы. Үшүнi том. – Астана: Foliant, 2014. – 424 б.
8. Ўзбек мифлари. Тўпловчи: Ж.Мавлонова, сўзбоши муаллифи: М.Жўраев. – Навоий: “Ёғдуполиграфия”, 2014. –140 б.